

**KICHIK BIZNES SUB'EKTALARIDA SANOAT MAHSULOTLARI EKSPORT  
VA IMPORT SALOHIYATINI BAHOLASH (NAVOIY VILOYATI  
MISOLIDA)**

***Sh.M.Suyunov***

*assistent, NDKTU*

*shukhratsuyunov@77gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes sub'ektlarida sanoat mahsulotlari eksport va importning hozirgi holati va tahlili, Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi, viloyat eksport va importining tovar tarkibi xususida tahliliy fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** bozor, kichik biznes sub'ektlari, tovar, narx, savdo aylanmasi, eksport va import

**Аннотация:** В данной статье выражено современное состояние и анализ экспорта и импорта промышленной продукции в субъектах малого предпринимательства, внешнеторгового оборота нашего региона, товарной структуры экспорта и импорта региона.

**Ключевые слова:** рынок, субъекты малого предпринимательства, товары, цена, товарооборот, экспорт и импорт.

**Abstract:** In this article, the current state and analysis of the export and import of industrial products in small business entities, the foreign trade turnover of our region, the composition of goods of export and import of the region are expressed.

**Key words:** market, small business entities, goods, price, trade turnover, export and import

**Kirish:** Mamlakatimizda qisqa davrda to'plangan tajribalarimiz kichik biznes sub'ektida sanoat mahsulotlarini eksport va import qilishda mihim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, viloyat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda yuqori mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishimizda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Eksport diversifikasiysi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo'lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Prezidentimiz tomonidan ma'ruzada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport

hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beradi.

**Tadqiqot maqsadi:** Kichik biznes sub'ektlarida sanoat mahsulotlari eksport va importining o'rni, ahamiyati, eksportning hozirgi holati, tashqi savdo aylanmasi, eksportning tovar tarkibi haqida tavsiyalar berish.

**Tadqiqot ahamiyati:** Tadqiqotning ahamiyati shundandan iboratki, u talabada bir qancha yangi axborotlarni yetkazadi. Jumladan, kichik biznes sub'ektlarida sanoat mahsulotlari eksport va importining holati, tashqi savdo aylanmasi, eksport va importning tovar tarkibi bo'yicha bilimlarini oshiradi.

**Tadqiqot natijalari:** **Viloyatimizda** kichik biznes sub'ektlarida sanoat mahsulotlarini eksport va import salohiyatini baholashda, viloyatimizda kichik biznes sub'ektlari sonini oshirish borasida bir qator me'yoriy hujjatlar, hududiy asoslar yaratildi.

Navoiy viloyatida kichik biznes sub'ektlarida sanoat mahsulotlari eksport va import salohiyatini baholashda quyidagi ma'lumotlar keltiriladi<sup>1</sup> (1-jadval).

### Navoiy viloyati eksportining tovarlar tarkibi<sup>1</sup> (foizda)

1-jadval

Nº	Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022yil	yanvar- dekabr 2023 yil	yanvar- dekabr 2024 yil
1	<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>	61,0	63,0	67,6	80,6
2	<b>Qora va rangli metallar</b>	4,4	5,8	2,3	1,6
3	<b>Mashina va uskunalar</b>	0,4	0,1	0,8	0,0
4	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	5,4	3,6	5,3	3,8
5	<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	0,6	1,5	3,6	2,7
6	<b>Xizmatlar</b>	2,8	0,6	0,3	0,1
7	<b>Boshqalar</b>	25,4	25,4	20,1	11,2
	Eksport jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0

Yuqorida jadvaldan ko'rinish turibdiki, Navoiy viloyati eksport tovarlar ulushida Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar salmog'i "Navoiyazot" OAJ ulushiga to'g'ri kelayapdi. Eng foizi kami esa xizmatlar sohasiga to'g'ri kelayapti.

<sup>1</sup> [www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)

Demak, 2021-2024 yillar davomida tahlil qiladigan bo'lsak, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlari eksport foizi 19,6 % ga va energiya manbalari va neft mahsulotlari eksport ulushi esa 2,1 % ga oshgan, **qora va rangli metallar eksport ulushi 2,8 % ga, mashina va uskunalar eksport ulushi 0,4 % ga, oziq-ovqat**

mahsulotlari 1,6 % ga, xizmatlar sohasi 1,7 % ga va boshqalar eksport ulushi esa 14,2 % ga kamaygan.

### Navoiy viloyati importining tovarlar tarkibi<sup>1</sup>

**2-jadval**

Nº	Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022yil	yanvar- dekabr 2023 yil	yanvar- dekabr 2024 yil
1	<b>Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar</b>	13,1	16,9	14,9	20,8
2	<b>Qora va rangli metallar</b>	14,7	22,0	14,3	19,1
3	<b>Mashina va uskunalar</b>	53,3	46,0	57,4	45,3
4	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	1,9	2,5	5,5	9,2
5	<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	0,3	1,5	0,4	0,4
6	<b>Xizmatlar</b>	5,8	2,4	3,1	1,4
7	<b>Boshqalar</b>	10,9	8,7	4,4	3,8
	Import jami, foizda	100,0	100,0	100,0	100,0

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Navoiy viloyati import tovarlar ulushida mashina va uskunalar salmog ‘iga to‘g‘ri kelayapti. Eng foizi kami esa **energiya manbalari va neft mahsulotlari** sohasiga to‘g‘ri kelayapti.


Demak, 2021-2024 yillar davomida tahlil qiladigan bo‘lsak, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlari import foizi 7,7 % ga, **qora va rangli metallar** import ulushi 4,4% ga, **oziq-ovqat mahsulotlari** import ulushi 7,3 % ga, energiya manbalari va neft mahsulotlari import ulushi 0,1 % ga o‘sган, aksincha **mashina va uskunalar import ulushi 8,0 % ga xizmatlar import ulushi 4,4 % ga boshqalar import ulushi esa 7,1 % ga kamaygan.**

### Navoiy viloyati tashqi savdo aylanmasi, dinamikasi<sup>1</sup> (foizlarda)

**3-jadval**


Yillar	Eksport	Import
<b>2021 yil</b>	43,5	56,5
<b>2022 yil</b>	47,2	52,8
<b>2023 yil</b>	48,8	51,2
<b>2024 yil</b>	69,9	30,1

<sup>1</sup> [www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)



Manba: Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

### **1-rasm. Navoiy viloyati tashqi savdo aylanmasi (eksport va import) % larda**



Manba: Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

### **2-rasm. Navoiy viloyati tashqi savdo aylanmasi, dinamikasi (foizlarda)**

Navoiy viloyati tashqi savdo aylanmasini 2021-2024 yillar davomida tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat eksport ulushi 26,4 % ga o'sgan, viloyat import ulushi esa 26,4 % ga kamaygan.


<sup>1</sup> [www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi oxirgi 4 yildagi ma'lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan<sup>2</sup>.

#### 4-jadval

#### MDH va boshqa davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, (%) da<sup>2</sup> (2021-2024 yollar)

	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	24,7	36,8	28,4	18,3
boshqa davlatlar	75,3	63,2	71,6	81,7
<b>Eksport</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	13,8	30,4	15,5	10,0
boshqa davlatlar	86,2	69,6	84,5	90,0
<b>Import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	32,1	42,3	41,6	37,4
boshqa davlatlar	67,9	57,7	58,4	62,6



Manba: Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

#### 3-rasm. MDH davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % da

Viloyatimizning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi, eksport va import sohasidagi oxirgi 4 yilligini tahlil qilganimizda, tashqi savdo aylanmasi 2024 yildagi savdo aylanmasi 2021 yilga nisbatan 6,1 % ga kamaygan.

Eksport sohasi esa 2024 yildagi holati 2021 yilga nisbatan 3,8 % ga kamaygan, import sohasida esa 2024 yildagi holati 2021 yilga nisbatan 5,3 % ga oshsgan.

<sup>2</sup><https://www.navstat.uz/uz/nashrlar/axborotnomalar>

### Xulosa.

Eksport diversifikatsiyasi, ya’ni xorijga sotayotgan tovar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda aholida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa xom-ashyo) ulushining katta bo‘lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo‘lishini ta’minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o’zgarishlaiga ta’sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarini og‘ir ahvolga solib qo‘yishi mumkin. Buning natijasida eksport hajmining qisqarishi valyuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonli davlatlarga bog‘lanib qolishi ham qaltis holat hisoblanadi.

Eksport hajmini oshirish va import hajmini kamaytirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini diversifikasiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o‘zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko‘tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-99-sonli Qarori// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O‘zbekiston Respublikasining Statistik Axborotnomasi 2024. Toshkent-2024.
4. **G ‘oyibnazarov B.K., Rahmonov H .O., Otajonov Sh.I., Almatova D.S.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. — T.: «Fan», 2011. — 185-b
5. Abdusalomov, M. (2024). INTEGRATION OF AI AND BUSINESS FOR A SUSTAINABLE FUTURE. *DTAI–2024, 1(DTAI)*, 335-337.
6. Abdusalomov, M. (2024). Revolutionizing Classrooms: The Role of AI in Personalized Learning and Student Engagement. *DTAI–2024, 1(DTAI)*, 402-404.
7. Bahronova, S. (2024). THE INFLUENCE OF INVESTMENTS ON INNOVATIVE ACTIVITIES IN ENTERPRISES ON THE PROFITABILITY OF ASSETS. *DTAI–2024, 1(DTAI)*.

8. Shirinova, S. A. (2024). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BARQAROR IQTISODIY O 'SISH GAROVI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 689-692.
9. Farmonov, D. B., & Jalilov, A. Z. More Development of Banks' Monetary, Crypto Currency and Blockchain Policy in the Digital Economy. *JournalNX*, 193-197.
10. Rashidov, M. K. (2021). ANALYSIS OF REGIONAL CONDITIONS FOR THE LOCATION OF FREE ECONOMIC ZONES. In *Стратегические инициативы и практические рекомендации по устойчивому развитию экономики: потенциал и риски* (pp. 164-170).
11. Rashidov, M. K. (2021). The urgency of improving the functioning of free economic zones in the regions. *Экономика: анализы и прогнозы*, (2), 13-21.
12. Karimovich, R. M. (2022). RELEVANCE OF DIGITALIZATION OF ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC AND SMALL INDUSTRIAL ZONES. *Архив научных исследований*, 5(5).
13. Атамурадов, Ш. (2023). ИННОВАЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ВЕНЧУР ФОНДЛАРИ ОРҚАЛИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ВА УНДА УЧРАЙДИГАН ТАВАККАЛЧИЛИК ТУРЛАРИ. *Economics and Innovative Technologies*, 11(1), 24-35.
14. Атамурадов, Ш. А. (2022). ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНИШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАР ТАҲЛИЛИ. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 3(4), 19-24.
15. Sodiqovich, X. S. (2024). ISSUES OF ACCOUNTING AND ANALYTICAL SUPPORT OF PRODUCTION PROCESSES OF TRANSPORT ENTERPRISES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 13(02), 34-40.
16. [www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)
17. <https://www.navstat.uz/uz/nashrlar/axborotnomalar>